



BUXORO AMIRLIGIDA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUGA KELISHI VA UNING MOHIYATI

Gulboyev Husan Shokir o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti talabasi
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7960749>

ARTICLE INFO

Received: 14th May 2023

Accepted: 21th May 2023

Online: 22th May 2023

KEY WORDS

Jadidchilik, ma'rifat, milliy ozodlik, teatr truppalari, texnologiya, ilm-fan.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Buxoro amirligida milliy ozodlik harakatlarida ish olib borgan jadidchilarning ilm-fan sohasida olib borgan islohotlari, yoshlarning ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda, ijtimoiy ong shaklini rivojlantirishdagi g'oyalari va ularning amaliyoti yuzasidan mulohaza va fikrlar keltirilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakati vujudga keladi va XX asr boshlarida Buxoro amirligida kuzatiladi. Shuning bilan birga aholining munosib yashash turmush tarzini ta'minlash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini yuksaltirish, jismonan sog'lom, intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Buxorodagi jadidchilikning Turkistondagi istilochilik harakatlaridan farqli jihatlariga e'tibor qaratib Fayzulla Xo'jayev shunday yozadi: "Buxoroda harakat boshqa yo'l bilan boradi. Buxoro jadidchiligi dehqonlar va mayda savdogarlarga tushadigan soliq og'irliklarini yengil qilish ham soliq ishlarini umumiy tartibga solish to'g'risida ochilgan gapdan boshlab tadrijiy suratda ko'p a'zolar, shubalar va Buxoro xalqining har xil tabaqalari orasidagi o'ziga xayrixoh omma bilan birga haqiqiy bir yashirin jamiyatga aylana bordi"[1] Bundan ko'rinadiki, mahalliy boylar, savdogarlar, ulamolar, mudarrislar va talabalar bu harakatga qo'shilgan bo'lib aholining ma'naviyatini yuksaltirish, ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ib etish edi.

Buxoro amirligida ko'plab jadidchi ma'rifatparvarlar bo'lib ular safida Axmad Donish, Axmadjon Xamdiy, Abdulvohid Munzin, Hamidxo'ja Mehriy, Sadridin Ayniy, Xo'ja Rofe'y, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li bu guruh tarkibida bo'lgan. Amir Nasrullo saroyida bosh xattot va rassom sifatida ish boshlagan Axmad Donish 1870-yilda adolatli davlat haqidagi tasavvurlariga mos kelmaydigan xizmatini ixtiyoriy tark etadi. U mazkur voqea haqida shunday yozadi: "...qo'shin va hokimlarga xizmat qilishdagi tartibning yo'qligi tufayli saroyda xizmat qilish menga og'ir va natijasiz ko'rindi, men taklif va e'tirozlarga qaramay, bundan ketdim va madrasaga joylashib, quruq nonga qoniqish hosil qildim"[2]. Bu esa o'z navbatida Buxoro amirligida soliqlar tartibga solinmaganligi, aholining turli xil mehnat majburiyatlariga jalb qilinishi kuzatiladi. Jadidchilik harakati ushbu muammolarga yechim sifatida ko'riladi. Ular harakatining tub mohiyati yangi usuldagi maktablar joriy qilish, yoshlarni chet el yoshlari



bilan bemalol sport, fan, madaniyat va texnika sohasida bemalol bellasha olishi uchun harakat qilgan. Bunda teatrning o'rnini beqiyos bo'lgan. Bundan ko'rinadiki teatrdan tushgan mablag'ga yoshlarni chet elda o'qishi uchun sarflangan.

Jadidchilik harakati bo'yicha muhataram Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev shunday deydi: "Jadidchilar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutunxona, va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o'qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g'afolat uyqusidan uyg'otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi.[3] Jadidchilar Buxoro zaminida yashab kelayotgan kishilarni savodli qilish va o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy savodxonligini yuksaltirish orqali, milliy ozodlikka erishish mumkin ekanligini, har qachongidan ham yuksak ahamiyat kasb etishini yaxshi bilganlar. Shu yo'sinda rivojlantirishga alohida e'tibor berganlar. Buxoro Respublikasida ta'lim sifatini yuksaltirish maqsadida maktablar, O'quv kurslari, va oliy o'quv muassasalari tashkil etilib, ularni rivojlantirish uchun bir qator tashviqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsada, qilinadigan muammolar anchayin ko'p edi. Bularning eng asosiysi o'qituvchilar va maktablarning moliyaviy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa, maktablarga jalb qilish va ikkinchisi yoshlarni ilmiy salohiyatini yusaltirish edi. O'sha davr nuqtai nazaridan oladigan bo'lsak maktablarda o'qitish jarayoni anchayin qiyin, sinfxonalari belgilangan talab doiralari javob bermaydigan edi. O'qituvchilarni maktabga jalb qilish anchayin qiyin bo'lgan va buning asosiy sababi ularni moliyaviy jihatdan ta'minlash edi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki Buxoro zaminida jadidchilik harakatining vujudga kelishi bu yangi iqtisodiy o'zgarishlar bo'lishiga undadi. Bu o'lkada bir qator islohotlar amalga oshirish, eng so'ngi texnologiyalar, yangi sanoat ishlab chiqarish zonalari, zamonaviy texnikalar olib kelinishiga ishongan va harakat qilgan. E'tiborli jihati shunda ediki, ona yurtini qashshoqlik, savodsizlik, qullik girdobidan olib chiqish qanchalik qiyin bo'lmasin bu yo'lda qarashlarini o'zgartirmadilar va o'z jonini fido qildilar.

References:

1. "Buxoro jadidlari". Nasrullo Naimov. Toshkent-2000.
2. "Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Toshkent - 1999.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.
4. "Milliy uyg'onish": Begali Qosimov. Toshkent-2002.